

XALQARO XUSUSIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA DAVLATLARNING ISHTIROKI VA IMMUNITETI MASALALARI

Nurilloyev Shavkat Shuxrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va Inson huquqlari" yo'nalishi
Magistratura bosqichi talabasi.

Email: shavkatlawyer@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14190217>

Annotatsiya. Maqolada xalqaro xususiy huquq doirasida davlatlarning xususiy huquq subyekti sifatida roli va immunitetiga oid masalalar tahlil qilinadi. Davlatlarning xalqaro munosabatlardagi roli va immuniteti tushunchalari xalqaro huquqda muhim o'rinn tutadi, chunki ular davlatlarning shaxsiy huquqiy javobgarligi, himoyasi va ijtimoiy-siyosiy masalalarda ishtirok etishini ta'minlaydi. Davlatlar xalqaro huquqning subyekti sifatida nafaqat o'z huquq va majburiyatlarini bajarishda, balki o'zlarini boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar oldida himoya qilishda ham immunitetga ega bo'lishadi. Maqolada davlatlarning immuniteti masalasi, jumladan, davlatlararo munosabatlarda, xalqaro sudlarda va boshqa huquqiy organlarda qo'llaniladigan normativlar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlatlarning xususiy huquq subyekti sifatida yuzaga keladigan masalalar, ular bilan bog'liq xalqaro konvensiyalar va me'yorlar hamda immunitetning qo'llanilishiga doir o'zgarishlar muhokama qilinadi. Ushbu maqola, xalqaro xususiy huquqda davlatlarning roli va immunitetini o'rganish orqali xalqaro huquq tizimidagi rivojlanishlarga doir yangi yondoshuvlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro xususiy huquq subyekti, suverenitet, xalqaro-huquqiy javobgarlik, xalqaro xususiy nizo, davlat immuniteti, mutlat va cheklangan immunitet.

ISSUES OF PARTICIPATION AND IMMUNITY OF STATES AS SUBJECTS OF PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Abstract. The article analyzes the role and immunity of states as subjects of private law within the framework of private international law. Concepts of the role and immunity of states in international relations have an important place in international law, because they ensure the individual legal responsibility, protection and participation of states in social and political issues. States, as subjects of international law, have immunity not only in fulfilling their rights and obligations, but also in defending themselves before other states and international organizations. The article analyzes the issue of immunity of states, including norms used in interstate relations, international courts and other legal bodies. Also, issues that arise as subjects of private law, international conventions and norms related to them, and changes in the application of immunity

are discussed. This article presents new approaches to developments in the international legal system by examining the role and immunity of states in private international law.

Key words: subject of international private law, sovereignty, international legal responsibility, international private dispute, state immunity, absolute and limited immunity.

ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ И ИММУНИТЕТА ГОСУДАРСТВ КАК СУБЪЕКТОВ МЕЖДУНАРОДНОГО ЧАСТНОГО ПРАВА

Аннотация. В статье анализируется роль и иммунитет государств как субъектов частного права в рамках международного частного права. Концепции роли и иммунитета государств в международных отношениях занимают важное место в международном праве, поскольку обеспечивают индивидуальную юридическую ответственность, защиту и участие государств в решении социальных и политических вопросов. Государства как субъекты международного права обладают иммунитетом не только при осуществлении своих прав и обязанностей, но и при защите перед другими государствами и международными организациями. В статье анализируется проблема иммунитета государств, в том числе норм, используемых в межгосударственных отношениях, международных судах и других юридических органах. Также обсуждаются вопросы, возникающие как субъекты частного права, международные конвенции и связанные с ними нормы, а также изменения в применении иммунитета. В этой статье представлены новые подходы к развитию международной правовой системы путем изучения роли и иммунитета государств в международном частном праве.

Ключевые слова: субъект международного частного права, суверенитет, международно-правовая ответственность, международный частный спор, государственный иммунитет, абсолютный и ограниченный иммунитет.

Xalqaro xususiy huquqda davlatlarga huquqiy subyektlilik xos hisoblanib, davlatlar o'zining maxsus huquqiy mavqeyiga ega. Davlatlar xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda odatda savdo, investitsiya, fuqarolik, oilaviy va boshqa masalalarda subyekt sifatida ishtirok etadilar. Davlatlar xalqaro xususiy huquqda turli yuridik munosabatlarda qatnashishi mumkin, ammo bu munosabatlar xalqaro davlatlararo huquqdan farqli o'laroq, ko'proq shaxsiy, iqtisodiy va mulkiy munosabatlarga qaratilgan bo'ladi.

Xalqaro huquq subyekti sifatida davlatlar xalqaro maydonda mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, ularning asosiy belgilari suverenitet, xalqaro huquqiy javobgarlik, hududiy yaxlitlik, va xalqaro munosabatlarda tenglikdan iboratdir.

Davlatlar xalqaro huquq normalarini yaratish, qabul qilish va bajarishda muhim rol o'ynaydi va ushbu normalar ularning milliy qonunchiligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlatlarning asosiy belgilaridan biri suverenitetdir. Bu, davlatning o'z hududi va fuqarolari ustidan mustaqil boshqaruvni amalga oshirish huquqidir. Shu bilan birga, xalqaro huquq davlatlar suverenitetini hurmat qiladi va ularning ichki ishlariiga aralashmaslik tamoyiliga asoslanadi.

Davlatning suvereniteti davlatlarning o'zaro teng huquqlili, har bir davlatning o'z burch va majburiyatlarini vijdonan barilishi, hududiy yaxlitlik va siyosiy mustaqillikka egalik hamda har bir davlatning to'liq suverenitet uzviy huquqidan foydalanishi kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi.

1970-yil 24-oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan "Davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va hamkorlikka oid xalqaro huquq prinsiplari deklaratsiyasi" (Declaration on Principles of International Law concerning Friendly Relations and Cooperation among States in accordance with the Charter of the United Nations) xalqaro huquqning eng asosiy prinsiplari va tamoyillarini belgilab bergan muhim hujjat hisoblanadi.

Ushbu Deklaratsiya BMT Ustaviga asoslanib, davlatlarning suveren tengligi, tinchlikni saqlash, chegaralarga hurmat va o'zaro hamkorlikni mustahkamlash kabi tamoyillarni yoritib beradi. Mazkur deklaratsiyada har bir davlat boshqa davlatning huquq subyektligini hurmat qilishi kerakligi va xalqaro huquq tamoyillariga qat'iy amal qilishi, ya'ni o'ziga yuklangan majburiyatni vijdonan, ixtiyoriy bajarish, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi prinsiplarga amal qilishi lozimligi belgilab berilgan.¹

Odatda davlatlar xalqaro xususiy huquqning subyekti sifatida ishtirok etganda huquqiy munosabatning bir tarafi sifatida ishtirok etishi, ikkinchi tarafda esa chet ellik yuridik shaxslar, xalqaro xo'jalik tashkilotlari yoki jismoniy shaxslarning ishtiroki bo'lganda xalqaro xususiy huquq bilan tartibga solinadi. G'arb huquqshunoslari orasida taniqli bo'lgan Lassa Francis Lawrence Oppenheim davlatni xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida ko'rib, davlatlarning faqat tijorat va shaxsiy munosabatlarda xalqaro xususiy huquqda ishtirok etishini ta'kidlaydi.²

Davlatlar xalqaro xususiy huquq doirasida ko'pincha tijorat va shaxsiy huquqiy munosabatlarida ishtirok etadi. Misol uchun, davlat chet ellik yuridik shaxslar yoki xorijiy investorlar bilan savdo yoki investitsiya shartnomalari tuzishi mumkin.

¹ Declaration on Principles of International Law concerning Friendly Relations and Cooperation among States in accordance with the Charter of the United Nations (Resolution 2625 (XXV), adopted on October 24, 1970);

²L.Oppenheim, International Law: A Treatise;

Bu kabi holatlarda davlat xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida o‘zini ko‘rsatadi, chunki u fuqarolik yoki tijorat huquqiy subyekti sifatida harakat qiladi va odatda shartnomalardagi huquqiy nizolar milliy qonunchilik yoki xalqaro arbitraj sudlari orqali hal qilinadi.

Davlat xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida o‘zining immunitetiga ega bo‘lishi mumkin. Davlatning immuniteti tamoyili shuni anglatadiki, davlat odatda boshqa davlatlarning sudlariga bo‘ysunmaydi va chet el yurisdiksiyasidan himoyalanadi. Biroq, ba’zi holatlarda, davlat o‘zining tijorat faoliyatida xalqaro xususiy huquq normalariga rioya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Misol uchun, davlat tijorat faoliyatida ishtirok etsa va shu bilan bog‘liq nizolar yuzaga kelsa, ayrim xalqaro konvensiyalar davlatni tijorat faoliyatida immunitetdan mahrum qilishni ko‘zda tutadi.

Davlatlar xalqaro xususiy huquqni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarga qo‘shilishi orqali o‘z majburiyatlarini belgilaydi. Masalan, Chet el sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha Gaaga Konvensiyasi (Hague Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Judgments in Civil or Commercial Matters) davlatlarning xalqaro xususiy huquq doirasidagi munosabatlarini yengillashtiradi va milliy qonunchilikni xalqaro normalar bilan muvofiqlashtiradi.³

Davlat xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida o‘z qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun qadamlar qo‘yadi. Xusan, chet el investitsiyalarini himoya qilish va investorlar bilan shartnomaviy munosabatlarda davlatlar o‘zlarining qonunchilik tizimlarini xalqaro xususiy huquq talablari va standartlari bilan moslashtiradi.

Davlatlar o‘zining xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida shaxsiy va oilaviy huquqiy munosabatlarda qatnashadi. Misol uchun, fuqarolikni aniqlash, farzand asrab olish, oilaviy nizolarni tartibga solish va shu kabi boshqa masalalarda xalqaro xususiy huquq qoidalari davlatlar tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

Davlatlar xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi va xalqaro tijorat, shaxsiy va mulkiy munosabatlarda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, davlat o‘zining suvereniteti va immunitetini saqlagan holda, xalqaro huquqiy normalarga rioya qilish va milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirishga intiladi. Davlatlarning xalqaro xususiy huquqda qatnashishi milliy va xalqaro huquq tizimlarining integratsiyasi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

³ the Hague Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Judgments in Civil or Commercial Matters.

Milliy qonunchilik tizimimizda ham davlatimizning xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida ishtirok etish asoslari belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1178-moddasiga muvofiq, chet el elementi mavjud bo'lgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatimizning ishtirok etishi mumkinligi hamda ushbu munosabatlar mazkur kodeksning 6 bo'limi(Xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq qilish) qoidalari hamda ichki qonunchilik normalari bilan tartibga solinishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu kodeksning 79-moddasida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar bilan teng asoslarda ishtirok etishi, ushbu munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari yoki ular vakil qilgan vakolatli organning ishtiroki, shuningdek davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari yuzasidan o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob berishi ta'kidlangan.⁴

Metodologiya

Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquq doirasidagi xalqaro konvensiyalar, xalqaro sudlarning qarorlari va davlatlarning amaliyotlarini o'rghanish orqali davlatlarning immuniteti va xususiy huquq subyekti sifatidagi ishtirokini huquqiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maqolani tayyorlashda turli davlatlarning xalqaro huquqda immunitetni qanday tartibga solishi va qo'llash amaliyotlarini solishtirish(komparativ) metodi qo'llanildi. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining(BMT) 2004-yildagi "Davlatlarning yurisdiksiyaviy immunitetlari to'g'risida"gi Konvensiyasi, Yevropa Kengashining 1972-yildagi "Davlat immunitetlari to'g'risida"gi Konvensiyasi hamda boshqa xalqaro konvensiya va Xalqaro Adolat Sudi va milliy sud amaliyotining huquqiy tahlili amalga oshirildi. Mazkur maqola xalqaro IMRAD talabi qoidalari asosida tayyorlandi.

Natijalar

Xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida davlatlarning ishtiroki va immuniteti masalalarini o'rghanish, zamonaviy xalqaro xususiy huquqning muhim jihatlarini anglashga yordam beradi.

Davlatlar o'zaro munosabatlarda, shuningdek, boshqa xalqaro subyektlar bilan aloqada turli huquqiy me'yorlar va normativ hujjatlar doirasida harakat qiladilar. Xususan, davlatlarning xalqaro huquq subyekti sifatida roli, ularning boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jismoniy shaxslar bilan aloqlari xalqaro xususiy huquqning asosiy masalalaridan biridir.

Xalqaro huquqda daylatlar faqat suverenitetga ega bo'lgan subyektlar sifatida emas, balki xalqaro huquq normalarini ishlab chiqishda va bajarishda asosiy o'rin tutadilar.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 79-moddasi;

Ularning xususiy huquqdagi ishtiroki, masalan, davlatlararo shartnomalar, xalqaro bitimlar, va koalitsiyalar orqali amalga oshadi. Bu jarayonlarda davlatlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun ko‘plab muhim huquqiy mexanizmlar va immunitetni qo‘llaydilar.

Davlatlar immuniteti xalqaro huquq tizimida muhim o‘rin tutadi, chunki bu tamoyil davlatlarni boshqa davlatlar yuridik huquqiga nisbatan himoya qilishni ta‘minlaydi. Immunitet prinsipi davlatlarning boshqa davlatlarning yurisdiktsiyasiga qarshi himoya qilish imkoniyatini yaratadi, ayniqsa, diplomatik va konsullik faoliyatni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, immunitetning chegaralari va qoidalari xalqaro hamjamiyat tomonidan belgilangan.

Xalqaro xususiy huquq va davlatlarning ishtiroki hamda immuniteti masalalari so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Xalqaro hamjamiyatning rivojlanishi bilan birga, davlatlar o‘zaro huquqiy aloqalarni chuqurlashtirishni davom ettirishmoqda. Bunga, masalan, xalqaro huquqning yangi normalari, sud hujjalari, va qonunlarni takomillashtirish orqali erishilmoqda. Davlatlarning immunitetga doir normativ huquqlari va tizimi, o‘zgaruvchan xalqaro sharoitlarda yangi talablar va o‘zgarishlarga javob berish uchun doimiy rivojlanib bormoqda.

Davlatlarning immuniteti masalalaridagi muammolar hali ham mavjud. Davlatlarning sudyalar, diplomatlar, konsullik va boshqa davlat vakillari tomonidan qilgan noqonuniy amaliyotlariga nisbatan qanday qarorlar qabul qilinishi va ular uchun qanday huquqiy javobgarliklar belgilanishi bo‘yicha aniq standartlar yo‘q. Bu masalani hal etishda xalqaro sudlarning, masalan, Xalqaro sudning rolini yanada kuchaytirish va davlatlarning immunitetiga qarshi yangi me’yorlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida davlatlarning ishtiroki va immuniteti masalalarini tartibga solish bo‘yicha kelajakda ko‘plab yangi qonunlar va shartnomalar ishlab chiqilishi kutilmoqda. Ushbu jarayonda, davlatlarning boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga solish, davlat immuniteti prinsiplerini yanada rivojlantirish va takomillashtirish hamda xalqaro hamjamiyatning yangi qarorlarini qabul qilish masalalari alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Muhokama(Asosiy qism)

Davlatning chet el elementi mavjud bo‘lgan xususiy-huquqiy munosabatlarda qatnashish asoslari

Davlatning xalqaro-xususiy huquqda subyekt sifatida ishtiroki ushbu davlat tomonidan chet elliklarga sotiladigan zayomlar va obligatsiyalar chiqorganida, vositachilik hamda savdo bitimlarini tuzganida, chet ellik bir taraf bilan ijara munosabatiga kirishganida, egasiz mulkning vorisi sifatida amal qilganida, tashqi savdo bitimlari bo‘yicha kafolatlar bergenida va boshqa ko‘plab holatlarda vujudga kelishi mumkin.

Davlat chet ellik fuqarolarga zayom obligatsiyalarini sotish jarayonida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning bir tomoni sifatida ishtirok etishi mumkin. Bundan tashqari, u konsessiya shartnomalari va umuman chet el kompaniyalariga konsessiya berish jarayonida ham tomon sifatida qatnashadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1995-yilda qabul qilingan "Konsessiyalar to'g'risida"gi qonuniga ko'ra (5-modda), konsessiyaviy huquqiy munosabatlarning subyektlari sifatida konsessiya organlari(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan davlat boshqaruvi organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlari) va Konsessiyachi(konsessiya shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi chet ellik investor) belgilab qo'yilgan.⁵

Shuningdek, davlat xorijiy mamlakatlarda elchixonalar uchun bino qurish, yer maydonlarini yoki turar joy binolarini ijaraga olish jarayonida ham mulkiy huquq subyekti sifatida qatnashadi. Bu hollarda davlat nomidan bitimlar uning elchixonalari tomonidan tuziladi. Davlat, shuningdek, xorijda uning fuqarosi vafot etganidan so'ng meros bo'lib qolgan egasiz mol-mulkning vorisi yoki vasiyatnama bo'yicha voris sifatida ishtirok etishi mumkin. Bu o'rinda davlat mulkiy munosabatlarda mustaqil huquqiy subyekt sifatida ishtirok etadi, biroq u yuridik shaxs sifatida qaralmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 80-moddasiga ko'ra, davlat tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar davlatning majburiyatları bo'yicha javob bermaydi, xuddi shuningdek, davlat ham u tashkil etgan yuridik shaxslarning majburiyatları bo'yicha javobgar emas. Biroq agar davlat o'zi tuzgan shartnoma doirasida yuridik shaxsning majburiyatlariga kafillikni o'z zimmasiga olsa yoki aksincha, yuridik shaxs davlatning majburiyatlariga kafillik bersa, ushbu qoidalar qo'llanilmaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunining 15-moddasi 2-bandida quyidagilar keltirilgan: "davlat kafolati ostida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb qilish orqali amalga oshiriladigan investitsiyalar markazlashgan investitsiyalar hisoblanadi."

Xuddi shuningdek, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunning 19-moddasida davlat, mahalliy davlat boshqaruvi organlari yoki davlat hokimiyati organlari chet el investorlari bilan tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatları bo'yicha faqat qonunlarda belgilangan tartibda kafolatlangan hollardagina javobgar bo'lishi ko'zda tutilgan.

Misol tariqasida, 1998-yil 26-oktabrda qabul qilingan "UzEksayd" O'zbek-Amerika qo'shma korxonasini(QK) tuzish haqidagi qarorda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ushbu loyihaga zarur bo'lgan kreditlar bo'yicha davlat kafolatini berish vakolati berilgan.

⁵ <https://lex.uz/docs/-118372;>

Bu holatda davlat Moliya vazirligi orqali loyihaga oid majburiyatlarni zimmasiga olib, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashgan hisoblanadi. Shunday qilib, davlat chet el elementli xususiy-huquqiy munosabatlarda yuridik shaxs sifatida ishtirok etsa ham, immunitetdan to‘liq foydalanmaydi. Bu holatda davlat immuniteti cheklanadi va u majburiyatlarini bajarish bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

Xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida davlatlarning ishtiroki va immuniteti masalalari yuzasidan O‘zbekiston hamda Metal-Tech Ltd. ishtirokidagi nizo tahlili

Davlat xalqaro xususiy huquqda ko‘pincha o‘zining suveren huquqiy maqomidan chiqib, tijorat munosabatlari subyekti sifatida harakat qiladi. O‘zbekiston ushbu nizoda quyidagi jihatlar bilan namoyon bo‘ldi:

Qo‘shma korxona tashkil etilishi: O‘zbekistonning ikki davlat korxonasi Metal-Tech Ltd. bilan birgalikda molibden ishlab chiqarish bo‘yicha Uzmetal qo‘shma korxonasini tashkil etdi. Bu holat davlatning tijorat munosabatlarida faol ishtirokini tasdiqlaydi.

Immunitetdan voz kechish: Davlat xalqaro bitimlarda tijorat faoliyati bilan shug‘ullanganida odatda suveren immunitetdan voz kechadi. Bu, jumladan, Metal-Tech va O‘zbekiston o‘rtasidagi nizo tribunal tomonidan ko‘rib chiqilganida, davlatning fuqaro-huquqiy subyekt sifatida ko‘rilganini ko‘rsatadi.

Metal-Tech Ltd. v. O‘zbekiston Respublikasi (ICSID Case No. ARB/10/3) xalqaro arbitraj doirasida muhim qarorlar qatoridan o‘rin olgan ish bo‘lib, korrupsiya masalasida investitsion nizolarni hal qilishda e’tiborga loyiq yondashuvni namoyish etadi. Ushbu ishda Metal-Tech Ltd.(Isroilda ro‘yxatdan o‘tgan kompaniya) o‘z investitsiyalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ustidan da’vo qildi. Da’vo Xalqaro investitsion nizolarni hal qilish markazi(ICSID) oldida ko‘rib chiqildi. Da’vogar O‘zbekiston tomonidan Isroil–O‘zbekiston o‘rtasidagi ikki tomonlama investitsiya bitimi (BIT) bo‘yicha o‘z majburiyatlarini buzganlikda aybladi.⁶

2000-yilda Metal-Tech O‘zbekistonga qarashli ikki davlat korxonasi (SOE) bilan birgalikda “Uzmetal” qo‘shma korxonasini tashkil qildi. Ushbu qo‘shma korxona O‘zbekistonda zamонавиy molibden(molybdenum) ishlab chiqaruvchi zavod qurish va uni boshqarish maqsadida tashkil etilgan edi(7-band). Keyinchalik, Metal-Tech O‘zbekiston hukumati bilan yaqin aloqador bo‘lgan shaxslar bilan umumiyligi 4,4 million dollarga teng bo‘lgan uchta konsalting shartnomasini tuzdi. 2006 va 2007-yillar davomida ikki davlat korxonasi o‘z ulushlari bo‘yicha dividendlar taqsimotini talab qilib, “Uzmetal”ga qarshi mahalliy sud jarayonlarini boshladi.

⁶ International Investment Law and Sustainable development: Key cases from the 2010s;

Sud Uzmetalni to‘lanmagan dividendlarni taqsimlashga majbur qildi, ammo kompaniya buni amalgal oshirmadi. Natijada, ikki davlat korxonasi Uzmetalga qarshi bankrotlik jarayonini boshladi. 2007-yilda Toshkent viloyati sudi Uzmetalning barcha aktivlarini ikki davlat korxonasi foydasiga tugatish va o‘tkazishni qaror qildi (34 va undan keyingi bandlar). 2010-yil yanvar oyida Metal-Tech ICSIDga arbitraj jarayonini boshlash uchun ariza berdi. Metal-Tech O‘zbekiston qonunlari buzilganini hamda Isroil-O‘zbekiston BIT doirasida adolatli va teng muomala, to‘liq himoya va xavfsizlik me’yorlari, shuningdek, mulkni musodara qilish qoidalari buzilganini da’vo qildi (107-band). Kompaniya taxminan 174 million AQSh dollari miqdorida kompensatsiya talab qildi.

O‘zbekistonning asosiy himoyasi shundan iborat ediki, tribunalning ushbu ish bo‘yicha yurisdiksiyasi yo‘q, chunki Metal-Techning investitsiyasi korrupsiyaga asoslangan holda va O‘zbekistondagi poraxo‘rlikka qarshi qonunlarni buzgan holda amalga oshirilgan edi(110-band).

Tribunal natijada uchta konsalting shartnomasidan ikkitasida korrupsiya mavjudligini aniqladi. Shu sababli, investitsiya noqonuniy tashkil etilgan deb topildi va tribunal o‘z yurisdiksiyasini rad qildi.⁷

Xalqaro xususiy huquqda Davlatlarning immunitet tamoyili:

Nazariya va Amaliyat

Xalqaro xususiy huquqda davlatlarning immuniteti masalasi murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, ushbu masala davlatlarning mustaqilligi va suvereniteti bilan bog‘liq bo‘lib, xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri – davlatlar tengligi printsipiga tayanadi. Davlat immuniteti boshqa davlat sudlari va yurisdiksiyalarida uning mas’uliyatga tortilmasligi tamoyilini ifodalaydi. Biroq, zamonaviy xalqaro huquq ushbu tamoyilni mutlaq emas, nisbiy yondashuvda talqin qilishga moyil bo‘lmoqda.

Davlatlarning immuniteti masalasi xalqaro hujjatlar, sud amaliyoti va milliy qonunchilikka asoslangan. Ushbu sohadagi asosiy xalqaro hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining(BMT) 2004-yildagi "Davlatlarning yurisdiksiyaviy immunitetlari to‘g‘risida"gi Konvensiyasi, Yevropa Kengashining 1972-yildagi "Davlat immunitetlari to‘g‘risida"gi Konvensiyasi hamda boshqa xalqaro konvensiya va Xalqaro Adolat Sudi va milliy sud amaliyoti hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining(BMT) 2004-yildagi "Davlatlarning yurisdiksiyaviy immunitetlari to‘g‘risida"gi Konvensiyasi davlatlarning immuniteti doirasini belgilashda asosiy manba hisoblanib, davlatlarning sud yurisdiksiyasidek immuniteti(5-7-moddalar), mol-mulkka qarshi choralar(18-20-moddalar), diplomatik va konsullik vakolatxonalariga nisbatan

⁷ Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan, ICSID Case No. ARB/10/3;

immunitetlari haqida normalarni o‘z ichiga oladi. Konvensiya davlatning suveren faoliyati (*acta jure imperii*) doirasidagi harakatlarini sud yurisdiksiyasidan ozod qiladi, biroq tijorat faoliyati (*acta jure gestionis*) doirasidagi ishlar bundan mustasno.

Yevropa Kengashining 1972-yildagi “Davlat immunitetlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi davlatning tijorat va xususiy huquqiy munosabatlarda qatnashishini tartibga soladi. Yevropa mamlakatlarida ushbu konvensiya davlat immuniteti masalasida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Yuqorida xalqaro konvensiyalar bilan bir qatorda, davlatlarning immuniteti bo‘yicha xalqaro va milliy sud qarorlari ushbu tamoyilni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Masalan: “Germany v. Italy (2012)” ishini misol keltirishimiz mumkin. Xalqaro Adolat Sudi Germaniyaning urush davridagi harakatlari tufayli Italiya fuqarolari tomonidan qo‘zg‘atilgan da‘volar bo‘yicha immunitetga ega ekanini tan oldi. Bu ishda sud davlatlarning suvereniteti xalqaro huquqning ustuvor printsipi ekanini ta’kidladi.

Zamonaviy xalqaro huquqda davlat immuniteti "nisbiy" tamoyilga asoslangan. Ushbu tamoyilga ko‘ra, suveren faoliyat (*acta jure imperii*) davlatning davlat sifatidagi huquqiy faoliyati to‘liq immunitetga egaligi hamda tijorat faoliyati (*acta jure gestionis*) davlatning tijorat yoki xususiy huquqiy munosabatlar doirasidagi faoliyati immunitetdan mahrum bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan, davlatning xalqaro shartnomalar yoki tijorat bitimlarida ishtirokini aytishimiz mumkin. Shuningdek, agar davlat xorijiy kompaniya bilan tijorat shartnomasi tuzib, o‘z majburiyatlarini bajarmagan bo‘lsa, bu holda davlat immunitetga ega emas deb qaraladi. Bu tamoyil ko‘plab davlatlarning milliy qonunchiligidagi ham aks etgan.(Masalan, AQShning "Xorijiy suverenitet immunitetlari to‘g‘risidagi akti" (FSIA, 1976)).

S.F.Seymon davlatlarning xalqaro huquqdagi immuniteti va suverenitetining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqib, bu masalani suverenitetni cheklovchi faktorlarga qarshi muvozanatda tahlil qiladi. U “International Law: The Nature of the International Legal Order”(Xalqaro huquq:

Xalqaro huquqiy tartibning tabiat) asarida davlatlarning suvereniteti va immunitetining xalqaro aloqalarda qanday tartibga solinishi zarurligini tushuntiradi. Uning fikriga ko‘ra, xalqaro huquqda davlatlar o‘z huquqlari va majburiyatlarini o‘zaro hurmat qilishlari kerak. Shuningdek, huquqshunos olim Xendriksen davlatlarning xalqaro immuniteti masalasini o‘z asarlarida, xususan, "The Legal Status of Foreign Sovereigns: A Comparative Study of the Immunity of States"(Chet el suverenlarining huquqiy holati: Davlatlarning immunitetini taqqoslash) asarida bat afsil yoritadi. U davlatlarning xalqaro immuniteti, o‘z yurisdiksiyasidagi sudlarning suverenitetiga qanday ta’sir qilishini tahlil qiladi.

Xendriksen, shuningdek, davlatlarning immuniteti masalalarida, xalqaro huquqning shart-sharoitlarini va cheklovlarini ko‘rib chiqadi.

Davlat xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida, ya'ni chet el elementli fuqarolik-huquqiy munosabatlarida qatnashganda, holat biroz qiyinlashadi. Bu holatda davlatning mutlaq immuniteti amal qiladi. Mutlaq immunitet prinsipi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismidagi sharhlarda (III jild) ham aks etgan. Ushbu sharhlarda O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida nafaqat xalqaro ommaviy huquqning subyekti sifatida tanilgani, balki fuqarolik-huquqiy munosabatlarning alohida subyekti sifatida ham qaralishi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi chet el elementlari ishtirokidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'z suverenitetini, mustaqilligini saqlab qoladi va hech bir boshqa davlat yoki uning organlariga bo'y sunmaydi. O'zbekiston davlatining vakolatxonalari, konsullik muassasalariga tegishli uy-joy, bino va inshootlarni sotib olish, chet el elementlari bilan mulkiy bitimlar tuzish, chet davatlarda ochilgan merosni qabul qilish kabi masalalarda ham chet el qonunlariga yoki chet el sud organlariga bo'y sunmasdan davlat immuniteti daxlsizligini saqlab qoladi.

Davlat immuniteti, suverenitet prinsipi asosida shakllanadi. Bu prinsip shundan iboratki, barcha davlatlar tengdir va hech bir davlat boshqa davlat ustidan ustun bo'lmasligi kerak ("par in parem non habet imperium" – teng tengga nisbatan ustuvor bo'la olmaydi). Chet el davlatlari, ularning organlari va ularga tegishli mulk ham immunitet huquqiga egadirlar. Davlatlarning yurisdiksiya immuniteti, suveren davlatning sudlarga bo'y sunmasligi, chet el davlatining mulkiga ta'minotni qo'llash, unga band solish, sud qarorlarini bajarish va boshqa cheklovlardan daxlsizligini anglatadi.

XX asrning 2-yarmidan boshlab, cheklangan immunitet konsepsiysi bir qator mamlakatlarning qonunchilik, sud va shartnomaviy amaliyotida keng tarqagan. Bu hol davlatlarning iqtisodiy faoliyatiga kengroq kirishishiga bog'liq bo'lib, shu bilan birga chet el davlatlarining immunitetiga cheklovlar qo'llash amaliyoti ham rivojlanib bormoqda. Bunday cheklovlar xalqaro huquq va shartnomaviy normalar orqali kengaymoqda, ammo davlatning mutlaq immuniteti bilan bog'liq qoidalari esa qisqarib bormoqda. Ba'zi davlatlar, masalan, immunitetga nisbatan mutlaq prinsipni qo'llashdan voz kechishmoqda, va bu o'z aksini ularning qonunlarida topmoqda. Misol sifatida, AQSH (1976), Buyuk Britaniya (1978), Avstriya (1979), Kanada (1981), Pokiston (1981) va boshqa davlatlarning qonunlari keltirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida hozirda "Daylat immuniteti" haqidagi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Ushbu qonun loyihasining asosiy maqsadi, O'zbekiston Respublikasining sud ishlarini ko'rib chiqish jarayonida, O'zbekiston va chet el davlatlari o'rtaida yuzaga keladigan da'volarga oid qoidalarni belgilash, sud qarorlarini bajarish va vakillarga immunitet va imtiyozlar bo'yicha aniq tartiblar o'rnatishdir.

Seminarda ishtirok etgan mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ushbu qonunni qabul qilish va amalda qo‘llash, sud tizimida tajribasi cheklangan mamlakatlarga, jumladan, MDH davlatlariga foyda keltiradi. Ayniqsa, yangi mustaqil davlatlarning xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalari rivojlanishida bu qonunning o‘rni katta bo‘ladi. Ushbu qonun, shuningdek, chet el investitsiyalari uchun barqaror huquqiy muhit yaratishga xizmat qiladi va milliy kompaniyalar va tashkilotlarning huquqiy himoyasini ta’minlaydi.

Xulosa

Xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida davlatlarning ishtiroki va immuniteti masalalari, zamonaviy xalqaro huquqning eng dolzarb va murakkab masalalaridan biridir. Davlatlarning immuniteti, ularning o‘zaro munosabatlarida, shuningdek, boshqa xalqaro subyektlar bilan aloqalarida huquqiy barqarorlik va muvozanatni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, immunitet prinsipi davlatlarning xalqaro aloqalarda suverenitetini himoya qilishga, diplomatik faoliyatni amalga oshirishga va qonuniy huquqlarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Davlatlarning xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida roli, ularning boshqa davlatlar bilan hamkorlikda qatnashishi va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro xususiy huquqning rivojlanishi, davlatlarning huquqiy normativlarga asoslanishi, ularning xalqaro bitimlar va shartnomalarda qatnashishi jarayonini yanada chuqurlashtiradi. Immunitetning xalqaro tizimda o‘rni va davlatlararo aloqalardagi o‘zgarishlar, shu bilan birga, xalqaro huquqning yangi normalarini ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Biroq, bu jarayonda ba’zi muammolar va tartibga solishdagi kamchiliklar ham mavjud.

Masalan, davlatlarning immunitetiga doir aniq normativ huquqiy qoidalar va ularni amalga oshirishdagi xatoliklar hali ham xalqaro huquqni takomillashtirish zaruratini taqdim etadi. Xalqaro sudlar va xalqaro hamjamiyatning faol ishtiroki, shu jumladan, yangi qonunlar va shartnomalar yaratish orqali, bu masalalarni hal etish mumkin. Davlatlarning immunitetini belgilashda davlatlararo shartnomalar va xalqaro qarorlar asosida yangi yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim.

Kelajakda, davlatlarning ishtirokini yanada kengaytirish, ularning xalqaro huquqdagagi o‘rnini mustahkamlash va immunitet tizimini takomillashtirish orqali xalqaro hamjamiyatda barqarorlikni saqlashga erishish mumkin.

Davlatlarning huquqiy mas’uliyatlarini kengaytirish, jismoniy shaxslar va boshqa xalqaro subyektlarning huquqlarini himoya qilish, va davlatlar o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta‘minlash bo‘yicha xalqaro huquqning rivojlanishi davom etishi lozim.

Bu jarayon, o‘z navbatida, global huquqiy hamjamiyatning barqarorligini va uning samaradorligini ta‘minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, davlatlarning xalqaro huquq subyekti sifatidagi ishtiroki va immuniteti, xalqaro tizimdaadolat va tenglikni saqlash, shuningdek, davlatlarning xalqaro munosabatlarda erkin va huquqiy asosda faoliyat yuritishlarini ta'minlashda muhim omil bo'ladi. Bu masalalar xalqaro huquqni yanada rivojlantirish va takomillashtirishning istiqbollarini ochib beradi, bu esa butun dunyo bo'ylab davlatlar o'rtasida huquqiy o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Declaration on Principles of International Law concerning Friendly Relations and Cooperation among States in accordance with the Charter of the United Nations (Resolution 2625 (XXV), adopted on October 24, 1970);
<https://legal.un.org/avl/ha/dpilfrcscun/dpilfrcscun.html>.
2. L.Oppenheim, International Law: A Treatise;
<https://www.britannica.com/topic/International-Law-A-Treatise>.
3. the Hague Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Judgments in Civil or Commercial Matters.
<https://treaties.un.org/doc/Publication/UNTS/No%20Volume/58036/Part/I-58036-0800000280626108.pdf>.
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining(BMT) 2004-yildagi "Davlatlarning yurisdiksiyaviy immunitetlari to'g'risida"gi Konvensiyasi.
5. Yevropa Kengashining 1972-yildagi "Davlat immunitetlari to'g'risida"gi Bazel Konvensiyasi.
6. O'zbekiston respublikasi Fuqarolik kodeksi; <https://lex.uz/mact/-111189>
7. O'zbekiston Respublikasining "Konsessiyalar to'g'risida"gi qonuni, 1995.
8. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 1998-yil 24-dekabr.
9. International Investment Law and Sustainable development: Key cases from the 2010s;
<https://www.iisd.org/system/files/publications/investment-law-sustainable-development-ten-cases-2010s.pdf>.
10. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b.